

LINGVOPOETIKA MASALALARI TADQIQIDA “DEVON-U LUG‘OTIT TURK”NING O‘RNI

РОЛЬ “ДЕВОНУ ЛУГАТИТ ТУРК” В ИЗУЧЕНИИ ВОПРОСОВ ЛИНГВОПОЭТИКИ

THE POSITION OF “DEVON-U LUG‘OTIT TURK” IN RESEARCHING LINGVOPROETII ISSUES

Berdiyev Xusan
Xolnazarovich

Berdiyev Xusan
Xolnazarovich
Filologiya fanlari
boyicha falsafa
doktori, dotsent
Samarqand,
O‘zbekiston -
Finlandiya
pedagogika instituti

1- O‘zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada filologik tahlil tarixining o‘ziga xos jihatlari lingvistik poetika masalalari aspektida yoritib berilgan. “Devon-u lug‘otit turk” asarining lingvopoetika tarixini o‘rganishdagi muhim o‘rni dalillar asosida ko‘rsatib berilishiga harakat qilingan. Asar materiallarining tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun ahamiyatlari tomonlari qayd etilgan.

Kalit so‘zlar. Lingvistik poetika, poetika ilmi tarixi, “Devon-u lug‘otit turk”, adabiy parchalar, filologik tahlil.

Annotatsiya. В данной научной статье освещаются специфические аспекты истории филологического анализа в аспекте вопросов лингвистической поэтики. Была сделана попытка обосновать важную роль работы “Девону лугатит турк” в изучении истории лингвопоэтики. Отмечены значимые для лингвистики и литературоведения аспекты материалов работы.

Ключевые слова. Лингвистическая поэтика, история поэтической науки, “Девону лугатит турк”, литературные отрывки, филологический анализ.

Abstract. Particular features of history of phiyological analysis are discussed in the aspect of lingvopoetic issues in this article. The importance of studying history of lingvopoetics of “Devon-u lug‘otit turk” is proved on the basis of facts. Lismificanceof this work (is undeslined), especially for lingvistics and literary studies is underlined.

Key words. Lingvistic poetics, history of poetics “Devon-u lug‘otit turk”, literary abstracts phylological analysis.

Kirish. Ma’lumki, «Devon»da M.Koshg‘ariy til va adabiyot uchun birdek taalluqli bo‘lgan keng materiallarni keltiradi, o‘rni bilan ularning lingvistik, ba’zan esa janriy-poetik (*she’rda shunday kelgan, shoir aytganidek kabilar; topishmoq, qo’shiq singari terminlar izohlari*) xususiyatlarini izohlab o‘tadi. Birgina misol shundaki, turkiy tillarning fonetikasi, fonetika bilan bog‘liq ravishda imlo masalalari bo‘yicha keltirilgan ma’lumotlar ham o‘zbek filologiyasi uchun bir necha jihatdan ahamiyatlidir. Ushbu ishda M.Koshg‘ariyning shu masalaga doir e’tiroflari va uning bugungi kundagi ahamiyati xususida ayrim mulohazalar bildiriladi:

- M. Koshg‘ariyning tovush va harfni, imlo va talaffuzni farqlashi, turkiy tillarning tovush tizimini to‘la aks ettirolmaydigan arab yozuviga qo’shimcha belgilar qo‘yib, ularni ma’lum bir darajada turkiy tillar fonetik xususiyatlarini aks ettirishga moslashtirishi, tovush almashinuvlari, turkiy shevalar va tillararo fonetik

farqlarni kombinator va nokombinatorlarga ajratib sharhlashi turkiy tilshunoslikda X-XI asrlardayoq mukammal fonetik ta’limot yaratganligidan, tilshunosligimizning fonetika sohasidagi nazariy-metodologik tamoyillari bundan qariyb 1000 yil oldin takomillashganidan dalolat beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Keyingi davrlarda, xususan, XIV-XIX asrlarda M.Koshg‘ariyning fonetik ta’lumoti tilshunosligimizda rivojlantirilmadi, aksincha, unutildi va XX asrda o‘zbek fani X-XI asrlardayoq o‘z bag‘rida ishlab chiqilgan va hatto, amaliy tatbiqda devonda keng miqyosda qo‘llanilgan fonetik tushunchalarini qaytadan Yevropa tilshunosligidan olishga majbur bo‘ldi.

Fitrat, umuman, jadidlar zo‘r berib, devon materiallarini ommalashtirishga qilgan harakatlari bejiz emas edi. Ular tarixiy haqiqatni tiklashga, biz bugun Yevropa fanidan olayotgan tushunchalar va tahlil usullari biz uchun tamoman yangi emas, balki Yevropa fani XVII-XVIII asrlarda o‘zimizdan olib, zamon bilan moslashtirgan holda rivojlantirgan tushunchalar ekanligini xalqqa etkazish, shu bilan unda milliy g‘urur va iftixon ruhini rivojlantirish, ma’naviy qadriyatlarga ehtiyyotkorona yondashish tuyg‘ularini shakllantirish va takomillashtirishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ygan edilar. «Devon» fonetik materiallarini bilish, tariximizda shunday etuk ta’limotlar mavjudligini keng omma onggiga etkazish bugungi milliy o‘zlikni anglash va uni jahonga tarannum etish davrida katta ilmiy-ma’naviy ahamiyatga ega;

- M. Koshg‘ariyning fonetikaga doir ma’lumotlari o‘zbek adabiy tili, shevalarida yuz bergen minglab hodisalarini sharhlash, to‘g‘ri tushunish va talqin etishda cheksiz ahamiyat kasb etadi. “Devon” materiallarining bu yo‘nalishdagi o‘ziga xos tomonlarini, jumladan, quyidagilarda ko‘rish mumkin:

Turkiy so‘z va o‘zaklarni o‘zaro tenglashtirish bir zamonlardagi fonetik variantlardan mustaqil lisoniy birlıklarning shakllanishi va rivojlanishi jarayonini to‘g‘ri tushunish va sharhlash uchun, chunonchi, devonda M. Koshg‘ariy shartli so‘z (parol) ma’nosida *im* so‘zini qayd etadi. Bu so‘z o‘zbek adabiy tilida kam qo‘llaniladigan, *im bilan gapirmoq*, *im qilmoq*, *im qoqmoq* kabi qo‘shma so‘z va birikmalarda uchraydi. M.Koshg‘ariyning devonda bergen faktik materiallari asosida *im* so‘zi *em* va *jim* fonetik variantlariga ega bo‘lishi hamda *em* shakli turklar, *im* shakli o‘zuzlar, *jim* qipchoq shevalari uchun xos bo‘lgan.

Tilimizda *jim*, *jim-jit*, *jimlik* kabi keng qo‘llaniladigan so‘zni *im* (*imo*) so‘zlar bilan bog‘lashga «Devon» materiallari katta material beradi.

M.Koshg‘ariy so‘z oxirida «g‘»ning «q» yoki «v» ga o‘tishi haqida aniq ma’lumotlar beradi. *Qishlag‘*, *yaylag‘* kabi so‘zlarda ham joy nomi, ham harakat nomi ma’nolari mavjudligini qayd etadi. Hozirigi tilimizda M.Koshg‘ariy XI asrda sharhagan *qishlag‘*, *qishlaq*, *qishlov* kabi fonetik variantlar mustaqil so‘zlar va hatto, -oq, -ov alohida-alohida qo‘shimchalar sifatida rivojlangan (*Qishloq* joy nomi *qishlov* harakat nomi). Lekin qator so‘zlarda -oq, -ov qo‘shimchalari ham joy nomi,

ham harakat nomi xususiyatlariga ega: O‘toq, yayloq 1.joy, 2. yaz-qishloq (yozda yashash joyi), qishloq – qishni o‘tkazish joyi kabi.

M. Koshg‘ariy bahor-yoz ma’nosida *yay, yaz* fonetik variantlarini beradi. Hozirgi tilimizda *yay*, *yoy* qo‘llanadigan *yaylov*, *yayramoq* so‘zlarida shu saqlangan. M. Koshg‘ariy oyoq-ozaq-adaq so‘zlarini beradi. O‘zbek adabiy tilida me‘yoriy so‘z – ayoq. Lekin adoq//odoq so‘zi ham *cho‘lning adog‘i// ishning adog‘ida* kabi qo‘llaniladi.

- Buxoro-Samarqand guruh shevalaridan tashqari boshqa shevalarda h-x farqlanmaydi. M. Koshg‘ariy har ikkalasi ham noturkiy ekanligi, h-x tovushlari turkiy tillarga noturkiy tillar ta’sirida kirib kelganligini alohida ta’kidlaydi. Qator turkiy tillarda, jumladan, hozirgi turk adabiy tilida h-x farqlanmaydi. Adabiy tilimizda h-x harflarining izchil farqlanishi bugungi kunda, xususan, o‘zbek lotin imlosida h va x shaklan keskin farqlanuvchi harflar bilan berilishi ham fikrimizning dalilidir.

Mahmud Koshg‘ariy turkiy tovushlar va yozuvlarni tavsiflash jarayonida bu so‘zni (turkiy turi) ham keng, ham tor ma’nolarda qo‘llaydi.

Mahmud

Koshg‘ariy turkiy tillardagi asosiy tovushlarni devonning 47-50 – betlarida 2 turga ajratadi:

1. Alovida
harflar bilan ifodalanuvchi tovushlar.

2.

Talaffuzda bo‘lib harfiy belgisiga ega bo‘lmagan tovushlar.

Harfiy

belgiga ega bo‘lgan umumturkiy tovushlar

Arabcha harflar nomi	Arabcha harflarning shakli	Ular vositasida ifodalangan tovushlar
Alifun alif		A, o, i, e, u, o‘
Fa: un, fe	ڦ	F
Xa: un, xe	ڪ	X
Va: vun, Vov	ڻ	V, u o‘
Za:un, ze	ڙ	Z
Qa: fun, qof	ڦ	Q
Ka: fun, kof	ڪ	K
Gof:	ڳ	G

Da:lun, dol	ດ (đ)	DZ
Mi mun, lun	ມ	M
Nu:nun, nuk	ນ	N
Si: nun, sin	ສ	S
Ba:un be	ບ	B
Ji: jun, jin	ຈ	J
Ra:un, re	ຮ	R
Shi:shun, shin	ܫ	Sh
Ta:un,te	ຕ	T
La: mun, lom	ລ	L

Bu ro‘yxatda «d» tovushi ko‘rsatilmagan. Buning sababi «Devon» o‘zbekcha nashri nashrlarning asosli fikriga ko‘ra, qadimgi uyg‘ur alifbosida *d* va *t* harflarining farqlanmaganligidir. Bundan xulosa qilish mumkinki, Mahmud Koshg‘ariy turkiy tillarga xos tovushlarni aniqlaganda qadimgi uyg‘ur yozuvli manbalarga tayangan va qadimgi uyg‘ur yozuvini turklarning asosiy yozuvi deb sanagan hamda shu asosda ish ko‘rgan. Bu ro‘yxatga (ද (dol) harfining kiritilmaganligini faqat shu bilan ifodalash mumkin. Bu ro‘yxatda hoyi-havaz, hoyi-huttining turkiy tillarga xos emasligi asosli va buni Mahmud Koshg‘ariy «Devon»ning boshqa o‘rinlarida ham ta’kidlaydi (chunonchi, 1, 48 bet) lekin hoyi-havvaz bilan beriladigan yumshoq «h»ning bu ro‘yxatga kiritilmaganligi ham, ehtimol uyg‘ur yozuvi xususiyatlari bilan aloqador bo‘lsa kerak. Chunki, «Qutadg‘u bilig» va «Hibatul haqoyiq» da h-x ziddiyati tipologik farq darajasiga ko‘tarilgan (ham→xam). Lekin bu fonologik oppozitsiya ham turkiy so‘zlar orasida emas. Bundan xulosa qilish mumkinki, Mahmud Koshg‘ariy tavsiqlagan turkiy hoqoniy adabiy tilda hozirgi o‘zbek tilining qator shevalarda, jumladan, Toshkent shevasida bo‘lgani kabi h-x ziddiyati xos bo‘lmasligi.

Mahmud

Koshg‘ariy yozuvda o‘z ifodasini topadigan tovushlar sirasida alif, vov, yoy harflarining arabiy fatha, zamma, kasra o‘rnida qo‘llanilishini ham qayd etadi va shunday yozadi: « Bu xatni yozishda, talaffuzda o‘rni yo‘qligiga qaramay, yozuvda bir turli belgilar orttiriladi. Masalan, zamma o‘rnida ۋ -vov, kasra o‘rnida ى -yo, fatha o‘rnida ئ -alif belgilarini yozish qoidadir» [I,49].

“Devon”ni tuzishdan ilgari lingvistik, tarixiy va etnografik materialni yig‘ish bo‘yicha ko‘p yillik ish amalga oshirilgani tabiiydir [1. 31].

Prof.H.Nematovning ilmiy kuzatishlarida etirof etilganidek, XI asrda yashagan birinchi turkshunos, tilshunos va leksikograf, etnograf va folklorist, tarixchi va geograf Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asari bilan turkologiyaga asos soldi. Bu asar turkiy tillarning birinchi qiyosiy grammatikasi bo'lishi bilan birga turk qabilalari tarixi, etnografiyasi va xalq og'zaki ijodidan qimmatli materiallarni o'z ichiga olgan yirik ensiklopediya hamdir. Mahmud Koshg'ariyning turkiy tillar grammatikasiga doir tadqiqotlari va mulohazalari hozir ham diqqatga sazovordir. Ana shunday nodir tadqiqotlardan biri turkiy tillarning tasnididir.

M.Koshg'ar
iy turk tillarini: 1) qabilaviy tillarning sofligiga ko'ra hamda 2) qabilaviy tillardagi fonetik va morfologik farqlarga ko'ra ikki gruppaga ajratadi [2, 52].

S.Mutallibo
vning "Devon-u lug'otit turk" va uning tarjimasi" maqolasida "Devon"da so'zlarning lug'aviy manosi izohlangan va so'zlarning yasalishiga doir malumotlar berila borgan. Shuning uchun bu asarda so'zlar izohi zamirida o'sha davr tili fonetikasi, morfologiyasi va leksikasiga doir mukammal qoidalar ham yuzaga kelgan"ligi takidlanadi [3, 42].

Ko'rinaradiki
, "Devon-u lug'otit turk" nafaqat lingvistik manba, shuningdek, fanning ko'pgina sohalari uchun nihoyatda noyob asar hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, u adabiyotshunoslik uchun ham boy va qimmatli materiallar manbaidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ishda mavzu talabidan kelib chiqqan holda tarixiy-qiyosiy, tavsifiy va tasniflash metodlaridan fodalaniladi. Tarxiy, zamonaviy manbalar materiallari tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. "Devon-u lug'otit turk"dagi adabiy parchalarning umumturkiy adabiyot, shuningdek, o'zbek nazmi va nasrining keyingi taraqqiyot va takomil bosqichiga bo'lgan ulkan ta'siri shubhasizdir. Shu ma'noda akad. B.Valixo'jayev ta'kidlaganidek, "Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'otit turk"i o'z asrininggina emas, balki keyingi davrlarning ham nodir asarlaridandir. Bu asarda muallif, bir tomondan, XI asrgacha va shu asrda mavjud bo'lgan turkiy xalqlar og'zaki ijodi namunalarini jamlab, go'zal bir xazinani yaratgan bo'lsa, ikkinchidan, o'sha davrdagi yozma adabiyot namunalarini ham o'z asariga kiritib, ularning bizgacha etib kelishiga sababchi bo'ldi. To'g'ri, bu misol va namunalar so'zlarning izohi uchun keltirilgan. Agar ular to'plansa, XI asr turkiy xalqlar she'riyatining go'zal bir bayozi maydonga keladi" [4, 47]. Mazkur she'riy parchalarning janriy xususiyatlari va adabiy tasnifi borasidagi ilmiy tajriba ilk bor prof. A.Fitrat tomonidan amalga oshirilgan. Ammo uning kuzatishlari zamonaviy filologiya nuqtai nazaridan davom ettirilishi lozim [5, 118]. Buning uchun esa, eng avvalo, asarda keltirilgan she'rlarning alohida nashrini amalga oshirmoq zarur. Negaki, hozirgi ilmda bu she'rlarning miqdori haqidagi ma'lumotlarning o'zi ham bir xil emas. Shu

bilan bir qatorda, ulardan faqat ikkitasi – “Alp Er To‘nga marsiyasi” va “Qish bilan Yoz munozarasi”gina o‘quvchilarga yaqindan tanish bo‘lib, boshqa ko‘plab namunalar nazardan chetda qolib ketmoqda. Vaholanki, prof.A.Hayitmetov e’tirof etganidek, «Bu to‘rtliklar bilan chuqurroq tanishish, muallifning qator ta’kidlari unda keltirilgan she’riy misollarning hammasi ham xalq og‘zaki ijodi namunasi emasligini ko‘rsatadi. Ularning ko‘plari ayrim avtorlarning, professional shoirlarning asarlaridir. Bu esa, bizda, turkiy xalqlarda yozma adabiyot XI asrdan ancha oldin paydo bo‘lgan deyish uchun asos beradi» [6, 139-140].

Mazkur she’rlar, o‘z navbatida, XI asr ijtimoiy-siyosiy hayoti to‘g‘risidagi voqealarga oid badiiy matnlar - she’rlar ham o‘rin olgan bo‘lib, ular falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, intim va voqeband lirikaning betakror namunalaridir.

Ikki asosiy bo‘lim – muqaddima va lug‘at qismidan iborat mazkur asar qomusiy manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Bu jihatdan, ayniqsa, lug‘at qismida so‘z va so‘z birikmalari izohi uchun foydalanilgan hikmatli so‘z, qo‘sish kabi adabiy-badiiy parchalarning ko‘pgina namunalarini keltirilgan. Tadqiqotlarda e’tirof etilishicha, “Devon-u lug‘otit turk”da 242 ta adabiy parcha berilgan bo‘lib, ular o‘sha davrda el orasida mashhur bo‘lgan dostonlar, marsiyalar, mehnat va muhabbat, tabiat tasviri, yurt manzaralari, qahramonlik, ovchilik to‘g‘risidagi xalq qo‘sishlaridir. Shuningdek, asarda ikki yuzdan ortiq maqoldan foydalanilganligi ham qayd etilgan [7, 73].

Mashhur tilshunos, “Devon-u lug‘otit turk”ning tarjimoni va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov ta’kidlaganidek, devondagi adabiy parchalar va muallifning ular haqidagi uqtirishlari Mahmud Koshg‘ariyning adabiy asarlar bilan ham qiziqqanini, ularni ham diqqat bilan o‘rganganini isbotlaydi. Mahmud Koshg‘ariy devonda yo‘l-yo‘lakay bo‘lsa ham, ba’zan vazn haqida, ba’zan adabiy janrlar haqida, ba’zan istiora, tashbih va boshqa she’riy xususiyatlar haqida ma’lumotlar beradi. Bu xil faktlar she’riy asarlarga doir qoidalar boshlang‘ich holda bo‘lsa ham, o‘sha davrlardayoq yuzaga kelganidan darak beradi [8, 23].

“Devon-u lug‘otit turk”dagi she’riy parchalar aruz va barmoq namunalari ekanligi haqida ham turlicha qarashlar mavjud.

She’rlarning aruzga aloqadorligi haqidagi fikr masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, shuni aytish mumkinki, “prof. H.Ne’matovning ta’kidlashicha, o‘zbek tilidagi bo‘g‘inlarni xohlaganda cho‘zib, xohlaganda qisqa talaffuz qilaverish mumkin, bu so‘zning ma’nosiga ta’sir qilmaydi. Shu jihatiga ko‘ra o‘zbek tili aruz uchun juda qulay” [9, 52].

She’rlarning mavzu ko‘lami haqida A.Hayitmetov shunday degan edi: “Bu to‘rtliklardan ko‘rinishicha, qadim turkiy xalqlar poeziyasida didaktika juda katta o‘rin tutgan. Bu urug‘chilik jamiyatni xususiyati bilan, unda otalarning mavqeいi baland bo‘lganligi bilan bog‘lansa kerak. Keyinroq, urug‘chilik yemirila boshlashi bilan bunday poeziyaning mavqeいi ham kamaya borgan. Bu traditsiyadan xabardor ijod

ahllari esa bu masalada orqaga ketishdan nolib, shu xilda to‘rtliklarni to‘qishgan. XI – XII asrlardan boshlab esa, bu traditsiyalar yanada rivojlanib, endi fors-tojik poeziyasidagi didaktik traditsiyalarga ham asoslana boshlagan. Xullas, Yusuf Xos Hojib, Navoiy, Maxtumquli kabi zabardast shoirlarning ijodidagi didaktika o‘z ildizlari bilan qadim turkiy traditsiyalarga bog‘lanadi.” [10, 50].

Asarda

keltirilgan she’rlar nafaqat mavzu va g‘oyasi, balki badiiy xususiyatlariga ko‘ra ham rang-barangdir. Ushbu she’rlar ko‘zdan kechirilganda, ular badiiy jihatdan mukammal namunalar sifatida namoyon bo‘lishi, binobarin, turli she’riy san’atlarni o‘zida mujassam etganligi kuzatiladi.

Turkiy tillarda yaratilgan poetik matnlar materialida fonetik ohangdoshlik taddiqida, eng avvalo, ilk manbalar asosida ish ko‘rmoq lozim. Bunda esa, “Devonu lug‘atit turk”da keltirilgan namunalar muhim qimmatga ega bo‘lib, ular, ayni paytda, qiyosiy – tipologik, etnogenetik aspektlarda kuzatish imkonini beradi. Bu xususiyat, ayniqsa, badiiy ijodning sof, muayyan ma’noda qayta qoliplashtirilmagan, tayyor sintaktik birliklar tizimiga asoslanuvchi maqollarda yanada yorqin ifodalangan. Bu – birinchidan. Ikkinchidan esa, tilning keyingi taraqqiyotida turkiy tillarga mos kelmaydigan holatni yuzaga keltirgan jihatlar, aynan, fonetik jarayonlar ekanligi Mahmud Koshg‘ariy tomonidan XI asrdayoq e’tirof etilgan.

Gap tovushlar poetik maqomi haqida borar ekan, aytish lozimki, asar mavzu va g‘oyasiga mushtarak so‘zlar tarkibida qatnashgan tovushlar silsilasida alohida ajralib turuvchi, she’rning kompozitsion-struktur jihatida etakchilik maqomini ifodalaydigan u yoki bu tovush muqarrar ravishda mavjud bo‘ladi. Fikrimizning dalili sifatida yuqorida keltirilgan parchalardan ikkitasidagi shunday xususiyatni qiyoslab ko‘raylik:

Алп Эр Тоња олдіму,
Эсіз ажун қалдіму,
Озлак очін алдіму,
Эмді јұрап жіртілур.

Yoki

Aniň ishin kәchurdum,
Әshin jima qachurdum,
Olum otin ichurdum,
Iichti bolub juzi tarin.

Birinchi parchada misralarning tugallovchi ochiq bo‘g‘ini tarkibida kelgan sonor – **M.** Ikkinchisida esa, tugallovchi yopiq bo‘g‘inlar tarkibida ham xuddi shu tovush mavjud. Birinchi misolda kelgan tovush o‘zidan keyingi unli bilan birga so‘roq mazmunini (yuklama sifatida) berish bilan birga ko‘proq murojaatni ham ifodalaydi. Bu esa, mazkur tovushlarning poetik maqomi alohida bo‘lib, ular yonma-

yon kelganda faqat yuklama shaklida so‘roq mazmuni bilan chegaralanib qolmasligini isbotlaydi.

Xulosa va takliflar.

takliflar. Asar materiallari tadqiqi borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar sirasiga quyidagilarni ham kiritish maqsadga muvofiqdir:

- “Devon-u lug‘otit turk”da keltirilgan parchalarda qo‘llangan she’riy san’atlar lingvopoetik nuqtai nazardan tadqiq etilmog‘i lozim. Zero, adabiyotning o‘zi kabi she’riy san’atlar ham til xususiyatiga ko‘ra xarakterlanadi;

- lingvistik birlıklarning badiiy san’at hosil qilish vazifasi fonetik-fonografik, leksik-grammatik hamda uslubiy-poetik omillar bilan bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. she’riy san’atlarning yuzaga kelishi, shakliy-lisoniy tarkibi haqida ilmiy ma’lumotlar olishda “Devon-u lug‘otit turk” materiallari o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Foydalaniłgan adabiyotlarn ro‘yxati

1. Kononov A.N. Mahmud Koshgariy va uning «Devonu lug‘otit turk» asari// OTA, 1972. – №1.
2. Ne’matov H. XI asrdagi turkiy tillarning M.Koshgariy tomonidan qilingan tasnifi// OTA, 1972. – №1.
3. Mutallibov S. «Devonu lug‘otit turk» va uning tarjimasi// OTA, 1971. – №5.
4. Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi (X-XIX asrlar). – Toshkent: O‘qituvchi, 1993.
5. Boltaboev H. “Devonu lug‘otit turk”dagi manzum parchalarning adabiy tasnifi // Mahmud Koshgariyning “Devonu lug‘otit turk” asari va uning turkiy xalqlar madaniyatining hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni. Xalqaro konferensiya materiallari. – Samarqand, 2002.
6. Hayitmetov A. Hayotbaxsh chashma. – T., 1974.
7. Aliev A., Sodiqov Q. O‘zbek adabiy tili tarixidan (o‘quv qo‘llanma). – T., 1994.
8. Mutallibov S.M. XI asrning buyuk filologlari va ularning noyob asarlari (so‘z boshi)// Devonu lug‘otit turk. I tom. – T., 1960.
9. Afoqova N. Bir she’rning vazni xususida// Mohiyatga intilgan olim (prof.H.G‘. Ne’matovga bag‘ishlangan maxsus to‘plam). – B., 2001.
10. Hayitmetov A. Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan. – T.: Fan, 1970.